

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Shernazarov, X.Jamolova</b>	
“BOBURNOMA”ning forscha misralari .....	91
<b>S.Halimov</b>	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi .....	95
	TILSHUNOSLIK
<b>Z.Akbarova, M.Buvajonova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
<b>G.Davlyatova</b>	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
<b>B.To'rayeva</b>	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari .....	107
<b>Z.Alimova, S.Gafurova</b>	
“SADOI TURKISTON” gazetasi va undagi bir maqola xususida .....	114
<b>G.Raximova</b>	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar .....	120
<b>J.Ibragimov</b>	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi .....	123
<b>N.Xasanboyeva</b>	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari .....	127
<b>D.Ganiyeva, D.Ismoilova</b>	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari .....	130
<b>M.Qurbonova</b>	
O'zbek tilshunosligida okkazonal birliklar tadqiqi .....	134
<b>L.Masharipova</b>	
Til va madaniyat .....	139
<b>Sh.Jumaqulova</b>	
O'zbek tilida “xursandchilik” etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi .....	144
<b>X.Maripova</b>	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari .....	147
<b>A.Mattiyev</b>	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar .....	151
<b>A.Yuldashev</b>	
So'z ma'nosi xususida.....	154
<b>D.Gaziyeva</b>	
Funksional va stilistik jihatdan media tili .....	159
<b>U.Yokubbayeva</b>	
“Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobida qo'llangan “ <i>yashil</i> ” leksemasining semantik takomili.....	164
<b>N.Umarova, M.Abdulimova</b>	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari .....	170
	MATEMATIKA
<b>A.Xasanov, I.Jalilov</b>	
$F_{0;3;3}^{2;2;2} [x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyaning qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi .....	173
<b>D.Usmonov, A.Urinov</b>	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar .....	185
	FIZIKA – TEXNIKA
<b>M.Maxmudova, Sh.Shuxratov</b>	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi.....	193

## ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA O'XSHATISH QURILMALARI

## ЗНАЧЕНИЕ ПРИЕМОВ УПОДОБЛЕНИЯ В ПОЭЗИИ АЛИШЕРА НАВОИ

## SIMILE DEVICES IN ALISHER NAVOI'S POETRY

Umarova Nargizaxon Rustamovna<sup>1</sup>, Mumtozbeqim Abdulimova Anvarjon qizi<sup>2</sup><sup>1</sup>Umarova Nargizaxon Rustamovna

- filologiya fanlari doktori, professor

<sup>2</sup>Mumtozbeqim Abdulimova Anvarjon qizi

- Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Navoiy g'azallarida qo'llangan o'xshatish qurilmalarining tarkibi va usulidagi kriteriyalar o'zgarib, Navoiy g'azallarida o'xshatish uch xil grammatik vosita yordamida shakllanishi va ularning o'xshatish qurilmalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari teng emasligi haqida ma'lumot berilgan. Navoiy she'riyatida kengaytirilgan o'xshatish subyektlariga misollar berilib, tahlil etilgan, umuman olganda, tilshunoslikda o'xshatish qurilmalarining o'rganilishi nechog'lik muhim vazifa ekanligi yoritib berilgan.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается состав тренажеров, используемых в газелях Навои. В стихах Навои сообщается, что имитации образуются с помощью трех разных грамматических средств и что они имеют неодинаковые возможности в образовании имитаторов. В поэзии Навои приводятся и анализируются примеры расширенных аналогий, подчеркивается важность изучения аналогий в языкознании в целом.

**Abstract**

This article discusses the composition of the simulators used in Navoi's gazals. In Navoi's poems, it is reported that simulations are formed using three different grammatical devices and that they have unequal opportunities in the formation of simulators. In Navoi's poetry, examples of extended analogies are given and analyzed, and the importance of the study of analogies in linguistics in general is highlighted.

**Kalit so'zlar:** O'xshatish belgisi, o'xshatish asosi, kengaytirilgan o'xshatish, morfologik vosita, leksik vosita, sintaktik vosita, izohlovchi, izohlanmish, o'xshatish subyekti, o'xshatish obyekt, etalon.

**Ключевые слова:** Признак аналогии, основание аналогии, развернутая аналогия, морфологическое средство, лексическое средство, синтаксическое средство, интерпретатор, интерпретируемый, предмет аналогии, объект аналогии, эталон.

**Key words:** Analogy sign, analogy base, extended analogy, morphological tool, lexical tool, syntactic tool, interpreter, interpreted, subject of simulation, object of simulation, standard.

**KIRISH.** Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsurdan tarkib topishi ta'kidlangan, ya'ni: 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt, 2) unga o'xshash bo'luvchi narsa yoki obyekt, 3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi va 4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi. O'zbek tilida ham, boshqa barcha tillarda bo'lgani kabi, o'xshatishlar to'rt unsurdan tarkib topadi va biz ularni o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi deb nomlashni ma'qul ko'ramiz. "Hozirgi o'zbek tilida o'xshatish munosabatini ifodalovchi yordamchi so'zlarga *kabi, singari, yanglig', xuddi, go'yo, bamisoli, misli*", *mislsiz, baayni* kabi ko'makchi va yuklamalarni ko'rsatish mumkin." [1, 49-b.]. Shu bilan birga o'xshatish grammatik vositalarsiz amalga oshgan hollar ham tez-tez kuzatiladi. Ular quyidagilar:

1. **Morfologik vositalar:** *-day (dek), -namo, -larcha, -simon, - dan (Tun oqshom bo'ldi-yu kelmas mening sham'i shabistonim, Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim (G'S);*

2. **Leksik vositalar:** *(Ne qavmog'ki, uyg'onmadi garchi tunlar, Tong otquncha itlar kebi nola qildim (G'S);*

3. **Sintaktik vositalar:** izohlovchi-izohlanmish munosabatli qurilma (*O'zi gavhar, to'ni daryoyi ofat, Bo'lub mavji balo ul to'n uza chin (G'S); Ohu fig'on chekma deb, og'zimg'a jono, muhr qo'y, Chunki la'ling xotamu yoquti nobingdur nig'in (G'S).*

**METODLAR.** Navoiy g'azallarida o'xshatish uch xil grammatik vosita yordamida shakllanadi va ularning o'xshatish qurilmalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari teng emas. Ana shu imkoniyatlariga ko'ra o'xshatish vositalarini darajalash maqsadga muvofiq. Bu o'rinda, shubhasiz,

## TILSHUNOSLIK

morfologik vositalar yondosh vositalarga qaraganda. Markazdan uzoqlasha borgan o'xshatish vositalarining konstruksiyalarni shakllantirishdagi nufuzi ham pasayib boradi. Alisher Navoiy g'azallarida o'xshatishning alohida turi qo'llanganki, mumtoz adabiyotimizda ilmiy manbalarda *o'xshatishning kengaytirilgan formasi* [2, 241-b.] yoki *laff va nashr* [3, 42-b.] nomi bilan yuritiladi. Garchi u tashbeh tarkibida o'rganilmasa-da, uning zamirida o'xshatish yotadi, faqat ifoda usuliga ko'ra o'xshatishdan farqlanadi. O'xshatishning bu usuli ko'proq izohlovchi-izohlanmish shaklini eslatadi. O'xshatish qurilmalarida uning komponentlari semantikasida gorizontaal yo'nalish, laff va nashrda esa vertikal yo'nalish ifoda topsa. Ba'zan ular o'rtasida deyarli tafovut sezilmaydi. Bu she'riy san'at she'r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini keltirib, keyin ular haqidagi hukmni bayon qilishga asoslanadi. Bundan asosiy maqsad esa nomlari keltirilgan narsa yoki tushunchalarni bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlashdir. Ushbu san'atni o'xshatishning kengaytirilgan yashirin formasi deyish mumkin. Navoiy she'riyatida o'xshatishning bu turi keng qo'llangan.

**NATIJALAR.** Alisher Navoiy g'azallarida kengaytirilgan o'xshatish subyektlari baytning birinchi misrasida, o'xshatish etalonlari esa ikkinchi misrada keltiriladi. Quyidagi misolda shoir yorning xattu xolini va oshiq ko'nglini dastlabki misrada sanab keltiradi, so'ng keyingi misrada ularning har biri haqidagi hukmni bayon qiladi:

**Xattu xoli nuqtasi yuz choklik ko'nglimdadur,**

*Bir qafasda turfadur, vah-vah, ko'ring to'tiyu zog' (G'S)*

Bu o'rinda shoir *xatni to'tiga, xolni zog'ga, ko'ngilni qafasga* qiyoslaydi. Navoiy she'riyatida xat bilan bog'liq o'xshatishlar juda ko'p. Ularning hammasi ham betakror tashbehii ifodalardir. Quyidagi:

**Xattining vasfin yozarmen kipriku xoli bila,**

*Xat yozarda chun zaruratdur qalam birla midod (G'S).*

Ushbu baytda avval o'xshatish subyektlari sanaladi, keyingi misrada esa ular uchun o'xshatish etalonlari keltiriladi. O'xshatishning bu kabi birdan ortiq qurilmalari orqali mahbuba xattining vasfini uning kiprigi va xoli bilan yozmoqchi bo'lgan oshiq kechinmalariga *xat, qalam va dovot* so'zlari etalon sifatida tanlangan. Keltirilgan baytda yorning *xatti xatga, kiprigi qalamga, xoli midodga* qiyoslangan. Baytda o'xshatish shakldosh so'zlar asosidagi tajnis san'ati bilan uyg'unlikda berilgan. Bu o'rinda xat so'zlari o'zaro shakldosh bo'lib, 1-misradagi xat so'zi yor lablari ustidagi mayin sabza, 2-misradagi xat so'zi esa yozuv ma'nolarini anglatadi. Bu o'rinda shoir xat so'zlari vositasida o'xshatishni mantiqiy asosga ega ekanligini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan.

Kengaytirilgan o'xshatish uchun hamma vaqt ham yorga xos xususiyatlar asos bo'lavermaydi, balki hijron azobida qiynalayotgan oshiq ruhiy iztiroblarini ifodalovchi tushunchalar ham asos bo'lishi mumkin. Masalan:

**Qon yoshim sorig' yuz uzra oshkor etti firoq,**

*Za'faronzorimni g'amdin lolazor etti firoq (G'S)*

baytida birinchi misrada ifodalangan *oshiqning firoqdan sarg'aygan yuzlaridan qon yoshlarining oqishi* keyingi misrada *za'faronzorim va lolazor* so'zlariga qiyoslanadi. Shunisi e'tiborga molikki, ushbu misolda o'xshatish subyektlari o'z epitetiga ega bo'lib, keyingi misrada o'xshatish etalonlari ana shu epitetlar ishora qilgan metaforalarda o'z ifodasini topgan. Metaforalarning qo'llanishi o'xshatishning to'la yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

**MUNOZARA.** Navoiy she'riyatida *qosh va yuz* so'zlari o'xshatish subyekti sifatida tanlangan baytlar juda ko'p. Lekin har gal shoir ular uchun yangi etalonlarni tanlashni ma'qul ko'radi. Masalan:

**Vo'sma uzra zar varaqlik ikki qoshing yuz uza,**

*Jilvagar bo'lg'on iki tovus erur gulzor aro (G'S)*

baytida *ikki qosh ikki tovusga, yuz gulzorga* o'xshatiladi. Yana bir misol:

**Qoshu yuzungdin agar ortar jununim ne ajab,**

*Telbalikka ham yangi oydur madad, ham navbahor (G'S)*

Mazkur baytdan "*Yorning qoshu yuzi oshiq telbaligini ziyoda qiladi, bunga sabab telbalik yangi oy chiqqanda va ilk bahorda avj oladi*" mazmuni anglashiladi. Baytda *qosh va yuz* so'zlari subyekt, *yangi oy va navbahor* so'zlari esa etalon hisoblanadi. Bu o'rinda etalonlar tamsil san'atini yuzaga chiqishiga ham xizmat qilgan. G'azallarda subyekt ham, etalon ham birgina misrada

joylashgan misollar ham uchraydi. Bu o'rinda o'xshatish aniqroq ifodalanadi. Chunki quyidagi misolda etalonlarning oxirgi komponenti o'xshatish vositasini oladi. Masalan:

**Sarvu sunbul loladek qad zulfu yuzung hajridin,**

*Ham alif, ham na'l kestim kuydurub yuz erda dog' (G'S) baytida sarv qadga, sunbul zulfga, lola yuzga* qiyoslanadi. Quyidagi misolda ham subyekt va etalonlar birinchi misrada berilgan bo'lib, *zulf* va *yuz* so'zlariga *sunbul* va *gul* tashbehlari tanlangan:

**Zulfu yuzdin sunbulungni gul uza tarqatma ko'p,**

**Dahr bog'ida gulu sunbul isin buratma ko'p (G'S)**

Yuqorida tahlil etilgan o'xshatishning kengaytirilgan formalarida subyekt va obyektning bayt misralarida o'rinishuvi tartibli, ya'ni murattabdir. Bunda baytning birinchi misrasida keltirilgan o'xshatish subyektlarining tartibiga ikkinchi misrada keltirilgan har bir hukm tartibi muvofiq keladi. Chunonchi:

o'xshatish subyektlari: **xatting labu xoling**

↓ ↓ ↓

o'xshatish etalonlari: **to'ti shakkaru hindu**

Alisher Navoiy ayrim g'azallarda o'xshatish subyekti va etalonlarining nomurattab turidan ham foydalangan. Bunda birinchi misrada yig'ilgan tushunchalar tartibi bilan ikkinchi misrada keltirilgan hukmlar tartibi muvofiq kelmaydi. Masalan:

**La'l o'za xat ichra xolingdur nihon yo hinduyi**

**Sabzada yoshundi shakkar qasdig'a aylab kamin (G'S)** baytida birinchi misrada *la'l*, *xat* va *xol* so'zlari laff hisoblanadi. Shunisi qiziqarliki, yuqorida ketma-ket sanalgan tushunchalar haqidagi hukm – nashr ikkinchi misrada emas, shu misraning o'zidayoq keltirilgan va keyingi misrada davom ettirilgan. Talabga ko'ra hukmlar ketma-ketligi *shakkar sabza – hinduyi* tartibida berilishi kerak edi. Lekin bu o'rinda nashr tartibi o'zgargan: *hinduyi, sabza, shakkar*. Baytda *la'l (lab) shakkarga, xat (lab ustidagi mayin tuk) sabzaga, xol hinduga* qiyoslanadi.

Laffda yig'ilgan *xat, lab, yuz* so'zlarining sintaktik shakllanuvda parallelizm qolipidan ham foydalanilgan:

**Xat labing uzra, labing yuz uzradur, qilg'on kibi**

**Obi hayvonu quyosh uzra makon Xizru Masih (BV)**

Bu misolda birinchi misradagi tushunchalar yorning *xati, labi va yuzi* sanalgan bo'lib, ular uchun tanlangan etalonlar – hukmlar tartibi *Xizru Masih, obi hayvon, quyosh* ko'rinishida bo'lish kerak edi. Biroq baytda etalonlar ketma-ketligi buzilgan: *obi hayvon, quyosh, Xizru Masih*. Hukmlar tartibi subyektlar tartibiga muvofiq emas. Shoir mazkur baytda *xatni Xizru Masihga, labni obi hayvonga, yuzni quyoshga* mengzaydi.

**XULOSA.** Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy ijodida o'xshatishning kengaytirilgan formasi ham keng qo'llangan. Mumtoz adabiyotda bu forma laff va nashr san'atiga teng keladi. Shoir g'azallarda bu san'atning g'oyat go'zal namunalari, xilma-xil ko'rinishlarini yaratgan. Natijada, g'azallarning g'oyaviy va badiiy jihatdan mukammalligi ta'minlangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш (Analogy in the Uzbek Language). – Т.: Фан, 1976, 88 б.
2. Ўзбек тили стилистикаси (Stylistics of the Uzbek language). – Т.: “Ўқитувчи, 1983. 241-б.
3. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия (Poetic arts and classical rhyme). –Т.: “Шарқ”, 1998, 42-б.
4. Ибрагимова Э. Бадий тасвир воситаларининг номланиши хусусида баъзи мулоҳазалар (Some comments on the naming of artistic media) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2009.
5. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули сифатида (Analogy as a product of figurative thinking) // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2011.
6. Umarova N.R. Alisher Navoiy g'azallarida sabab-natija munosabatlarining ifodalanishi: (Expression of cause-and-effect relationships in Alisher Navoi's ghazals) NDA. – Farg'ona, 2005.
7. Umarova N.R. (2020). Alisher ijodida “so'z” tushunchasi (The concept of “word” in Alisher's work). Namangan davlat universitetining ilmiy axborotnomasi, 2(11), 256-262.
8. Umarova N.R. (2020). Millat “konseptsiyasi”ning talqinlari (Interpretations of the "concept" of the nation). ERPA xalqaro multidisipliner tadqiqotlar jurnali (IJMR), 6, 437-439.
9. Umarova N.R. (2021). Alisher Navoiy g'azallarida badiiy antroponimlarning qo'llanilishi (The use of artistic anthroponyms in Alisher Navoi's ghazals). Nazariy va amaliy fanlar, (5), 419-421.